

## SUD TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA SUDYALAR DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH

**Jo'rayeva Farangiz Bahrom qizi**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti. Yurisprudensiya ta'limga yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda tashkil qilingan sud tizimi va so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar o'z aksini topgan. Shuningdek, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatiga aralashishga yo'l qoyilmasligi yani sudyalar dahlsizligining mustahkamligi, sud hokimiyatining boshqa hokimiyatlardan mustaqilligi ta'minlash bilan bog'liq islohotlar masalasi ko'tarilgan.

**Kalit so'zlar:** Odil sudlov, sud hokimiyati, Sudyalar oliv kengashi, Sudyalar malaka hayati, sudyalar korpusi, sudyalar odobi kodeksi, sud protsesi.

Mamlakatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sud tizimini izchil demokratlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash hisoblanadi.

O'tgan yillar davomida sudni hokimiyatning mustaqil va alohida tarmog'i sifatida tashkil etish, uni o'tmishdagi jazolash organidan inson huquq va erkinliklarini muhofaza qiluvchi hamda ishonchli himoya qiluvchi davlatning chinakam mustaqil institutiga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Hech qaysi boshqa organlar va shaxslar sud hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirib olishga haqli emas. Sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash biz uchun eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, sud biron bir mansabdor shaxsning qo'li yetadigan idoraga aylanib qolmasligi kerak. Shu sababli, sud ishlariga aralashish yoki sudga bosim o'tkazish uchun javobgarlikni kuchaytirish tog'risida Prezidentimiz o'z asarida keltirib o'tgan.<sup>[1]</sup> O'tgan bir yil davomida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar boshlandi. Xususan, suddar tuzilmasini xamda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida xech qaysi hokimiyat bo'g'iniga bo'ysinmaydigan organ-Sudyalar oliv kengashi tashkil etildi. O'zbekiston respublikasi Sudyalar oliv kengashi sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi bo'lib, u sudyalar korpusning shakllantirilishini, sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlaydi. Kengash tomonidan sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlashda ta'sirchan jamoatchilik nazorati o'rnatildi. <sup>[2]</sup>

O'zbekiston Respublikasida sud tizimi quyidagicha:

O'zbekiston Respublikasida sud tizimi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;

harbiy sudlar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;

fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;

jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari;

tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;

tumanlararo ma'muriy sudlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga ko'ra sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.[3]

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va nufuzini oshirish, sudlar tuzilmasini hamda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. Sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga riosa etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv Kengashi tashkil qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi tugatilib, uning 21 nafar bo'shayotgan ijro apparati shtat birligi Kengashga o'tkazilsin.

3. Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari etib belgilansin:sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlash, malakali va mas'uliyatli mutaxassislar orasidan sudyalarni tayinlash, shuningdek rahbar sudyalik lavozimlariga ko'rsatish uchun tavsiya berish yo'li bilan sudyalar korpusini shakllantirish;sudyalar daxlsizligi buzilishining va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;sudyalarni kasbiy tayyorlash, malakasini oshirishni tashkil etish, ularning faoliyati samaradorligini baholash, shuningdek sudyalarni rag'batlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatish;ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik olib borish, aholi bilan muloqotni yo'lga qo'yish, sudyalar tomonidan odob-axloq qoidalariga riosa etilishi masalalari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish;sudhuquq sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini va yagona sud amaliyotini ta'minlash, odil sudlovga erishish darajasini va uni amalga oshirish sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash;sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish, shuningdek ularni jinoiy va

ma'muriy javobgarlikka tortishga xulosa berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish. O'zbekiston Respublikasida sudyalarini saylash va tayinlash tartibi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining tavsiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan saylanadi.

Viloyat, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, viloyat, Toshkent shahar ma'muriy sudi, tumanlararo, tuman, shahar sudi, hududiy harbiy sud sudyasi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman, shahar sudi sudyasi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan yoki kelishib olinadigan lavozimlarda faoliyat yuritayotgan va benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lgan shaxslar, istisno tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi huzuridagi Sudyalar oliv mакtabida majburiy tartibda o'qitilmagan holda ilk bor sudyalik lavozimlariga tayinlanishi mumkin.

Sudyani lavozimga tayinlash tegishli sudyalar malaka hay'atining xulosasi inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Sudyalarning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- ularni qonunda belgilangan tartibda lavozimga saylash, tayinlash, sudyalik vakolatlarini to'xtatib turish va tugatish;

- sudyaning daxlsizligi;

- Sudyaning mustaqilligini cheklaydigan qonunchilik hujjatlari qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

- Sudya, uning oila a'zolari va ularning mol-mulki davlatning alohida himoyasida bo'ladi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, sudyalarning odil sudlovga ta'sir o'tkazadigan omillardan ximoya qilish kerak. Tergov va sud ishiga aralashish xolatlarini aniqlash, buning uchun javobgarlikni kuchaytirish va jazo muqarrarligini ta'minlashi zarur.[5]

Sudya quyidagi huquqlarga ega:

mansabdar shaxslar va fuqarolardan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'z farmoyishlarining bajarilishini talab qilish;

mansabdar va boshqa shaxslardan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni olish;

odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning axborot tizimlaridan bepul asosda olish hamda

shaxsga doir ma'lumotlar mavjud axborot tizimlaridan foydalanish, shu jumladan masofadan turib foydalanish;

Sudyaning majburiyatlari:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga og'ishmay rioya etishi;

o'z vakolatlarini amalga oshirishda, shuningdek xizmatdan tashqari munosabatlarda Sudyalik odobi kodeksi talablariga rioya etishi, sud hokimiyati obro'sini, sudyaning sha'ni va qadr-qimmatini tushirishi yoki uning beg'arazligi, xolisligi va adolatlilikiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan har qanday xattiharakatdan o'zini tiyishi;

sud protsessi ishtirokchilarini hurmat qilishi;

o'z malakasini sudyalik vakolatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan darajada saqlab turishi;

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda o'zini o'zi rad qilishi va sud protsessi ishtirokchilarini xabardor qilishi shart. [6]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, sud tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sud tizimining mustaqilligini ta'minlamoqda. Sud tizimining mustaqiligi ta'minlansa xalqning ularga bo'lgan ishonchi xam ortib boradi va shu tariqa huquqiy davlat shakllanib boradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh.M.M.Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari 4. Toshkent.2020,118-bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. Toshkent. 2017
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent.2023
4. Sh.M.Mirzeyoyev."O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni 2022
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. Toshkent. 2017
6. O'zbekiston Respublikasining " Sudlar to'g'risida"gi qonuni. 2022, 64-bet